

**CENTRAL ASIAN UNIVERSITY SUSTAINABILITY POLICY ON DONATIONS AND
FUNDING**

**CENTRAL ASIAN UNIVERSITY'NING XAYRIYA VA MOLIYALASHTIRISH
BO'YICHA BARQARORLIK SIYOSATI**

MUNDARIJA	CONTENTS
- Umumiy Ma'lumot - Siyosatning Maqsadi - Asosiy Tamoyillar - Siyosat Maqsadlari - Xayriya Mablag'larini Taqqoslash va Hisobot Berish - Hamkorlik va Sherikliklar - Siyosatni Ko'rib Chiqish va Unga Rioya Qilish - Amalga Oshirish Strategiyalari - Ta'lim va Hamjamiyat Bilan Hamkorlik	- Overview - Policy Purpose - Core Principles - Objectives of the Policy - Allocation and Reporting of Donations - Engagement and Partnerships - Policy Review and Compliance - Implementation Strategies - Education and Community Engagement
1. Umumiy Ma'lumot	1. Overview
Central Asian University (CAU) ushbu siyosatni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, universitet Nizomi, ichki me'yoriy hujjatlar hamda xalqaro standartlarga muvofiq qabul qiladi. CAU ilmiy yuksaklik, innovatsion fanlararo tadqiqotlar va barqaror rivojlanishga sodiqdir. Ushbu siyosat xayriya mablag'larini qabul qilish va boshqarishda yo'naltiruvchi tamoyillarni belgilab, barcha mablag' yig'ish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash faoliyatida axloqiy me'yorlarga rioya qilish, shaffoflik va barqarorlikni ta'minlashni ko'zda tutadi.	Central Asian University (CAU) adopts this policy in accordance with its Charter, internal regulations, the legislation of the Republic of Uzbekistan, and international standards. CAU is committed to academic excellence, innovative interdisciplinary research, and sustainable development. This policy outlines the guiding principles for the acceptance and management of donations, emphasizing ethical conduct, transparency, and sustainability in all fundraising and financial support activities.
2. Siyosatning Maqsadi	2. Policy Purpose
Ushbu siyosatning maqsadi — CAUda xayriya va moliyalashtirishni axloqiy hamda barqaror tamoyillar asosida boshqarish uchun yagona tizim yaratishdir. Siyosat barcha moliyaviy hissalar universitetning missiyasi va qadriyatlariga mos bo'lishini ta'minlaydi hamda akademik rivojlanish, jamiyatga ijobiy ta'sir va ekologik	The purpose of this policy is to provide a framework for the ethical and sustainable management of donations and funding at CAU. It ensures that all financial contributions align with the university's mission and values, thereby promoting academic development, community impact, and environmental responsibility. The

mas'uliyatni ilgari suradi. Shuningdek, siyosat universitet va keng jamoatchilikka ta'sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan barqaror rivojlanish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi.	policy also supports sustainable development initiatives that address social, economic, and environmental challenges affecting the university and the wider community.
3. Asosiy Tamoyillar	3. Core Principles
1. Hisobdorlik va Shaffoflik. CAU milliy qonunchilik va xalqaro ilg'or tajribalarga muvofiq xayriya manbalarini to'liq oshkor etishni ta'minlaydi. Barcha moliyaviy operatsiyalarda shaffoflik va hisobdorlikni kafolatlash uchun muntazam auditlar o'tkaziladi.	1. Accountability and Transparency. CAU commits to full disclosure of donation sources in compliance with national legislation and international best practices. Regular audits will ensure transparency and accountability in all financial operations.
2. Axloqiy Me'yorlar. Xayriyalar CAUning asosiy qadriyatlariga mos bo'lishi kerak. Universitet axloqiy standartlarga zid yoki ekologik hamda ijtimoiy xavf tug'diruvchi moliyaviy manbalarni rad etish huquqini saqlab qoladi.	2. Ethical Considerations. Donations must reflect CAU's core values. The University reserves the right to reject funding that conflicts with ethical standards or poses environmental or social risks.
3. Atrof-muhit Barqarorligiga E'tibor. Qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni kamaytirish, biologik xilma-xillik va iqlim barqarorligini rivojlantiruvchi tashabbuslarga ustuvorlik beriladi.	3. Focus on Environmental Sustainability. Priority is given to initiatives that promote renewable energy, waste reduction, biodiversity, and climate resilience.
4. Tenglik va Inklyuziyani Rivojlantirish. Xayriyalar CAU hamjamiyatida xilma-xillikni oshirish va kam vakillik qiluvchi guruhlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qilishi lozim.	4. Promoting Equity and Inclusivity. Donations should foster diversity and ensure equal opportunities across the CAU community, especially for underrepresented groups.
5. Uzoq Muddatli Ta'sirga Sodiqlik. CAU akademik, ijtimoiy yoki ekologik jihatdan uzoq	5. Commitment to Long-term Impact. CAU prioritizes projects with sustainable, long-term academic, social, or environmental benefits.

muddatli, barqaror foyda beruvchi loyihalarga ustuvorlik beradi.	
4. Siyosat Maqsadlari	4. Objectives of the Policy
CAUning barqarorlik yo‘nalishidagi akademik va ilmiy salohiyatini mustahkamlash; Universitetning barqarorlikka sodiqligini qo‘llab-quvvatlovchi hamkorliklarni rivojlantirish; Xayriyalarni ijtimoiy, ekologik va ilmiy ahamiyatga ega loyihalarga yo‘naltirish.	To strengthen CAU’s academic and research capacity in the field of sustainability; To promote partnerships that support the university’s commitment to sustainability; To allocate donations to projects with demonstrated social, environmental, and academic value.
5. Xayriya Mablag‘larini Taqsimlash va Hisobot Berish	5. Allocation and Reporting of Donations
1. Mablag‘larni Taqsimlash. Xayriyalar barqarorlikka yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar, stipendiyalar, “yashil” infratuzilma va jamoaviy tashabbuslar kabi ustuvor yo‘nalishlarga ajratiladi.	1. Fund Allocation. Donations will be directed toward priority areas such as sustainability-focused research, scholarships, green infrastructure, and outreach programs.
2. Ta’sirni Kuzatish. CAU barcha moliyalashtirilgan tashabbuslarning samaradorligi va ta’sirini baholash mexanizmlarini joriy etadi.	2. Monitoring Impact. CAU will establish mechanisms to evaluate the effectiveness and impact of all funded initiatives.
3. Hisobot Amaliyoti. Yillik barqarorlik va moliya hisobotlarida xayriyalar sarfi va erishilgan natijalar bo‘yicha batafsil ma’lumot keltiriladi.	3. Reporting Practices. Annual sustainability and finance reports will include comprehensive data on donation use and results achieved.

6. Hamkorlik va Sherikliklar	6. Engagement and Partnerships
1. Xayriyachilarni E'tirof Etish. CAU xayriyachilar hissasini institutsional siyosat va donor xohishlariga muvofiq ochiq va hurmat bilan tan oladi.	1. Donor Acknowledgment. CAU will recognize donor contributions publicly and respectfully, in accordance with institutional policies and donor preferences.
2. Hamkorlikdagi Faoliyat. NNTlar, korporativ homiylar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik CAUning barqarorlik qadriyatlarini qo'llab-quvvatlagan taqdirda rag'batlantiriladi.	2. Collaborative Engagement. Partnerships with NGOs, corporate sponsors, and international institutions will be encouraged, provided they support CAU's sustainability values.
7. Siyosatni Ko'rib Chiqish va Unga Rioya Qilish	7. Policy Review and Compliance
Ushbu siyosat har uch yilda bir marotaba qayta ko'rib chiqilib, huquqiy va barqarorlik talablaridagi o'zgarishlarga moslashtiriladi. Har qanday buzilishlar universitet boshqaruv tartib-qoidalari va intizomiy mexanizmlar orqali ko'rib chiqiladi.	This policy shall be reviewed every three years to maintain alignment with evolving legal and sustainability requirements. Any violations will be addressed through university governance procedures and disciplinary frameworks.
8. Amalga Oshirish Strategiyalari	8. Implementation Strategies
1. Nazorat Mexanizmlari. Maxsus universitet qo'mitasi siyosatni nazorat qilish, baholash va unga rioya etilishini ta'minlash uchun javobgar bo'ladi.	1. Oversight Mechanisms. A designated university committee will be responsible for the policy's oversight, evaluation, and compliance.

2. Xodimlarni O‘qitish. Mablag‘ yig‘ish faoliyatida ishtirok etuvchi CAU xodimlari barqaror va axloqiy xayriya boshqaruvi bo‘yicha tayyorgarlikdan o‘tkaziladi.	2. Staff Training. CAU personnel involved in fundraising will be trained in sustainable and ethical donation management.
3. Donorlar Bilan Muloqot. Shaffoflik, fikr-mulohaza va umumiy barqarorlik maqsadlariga asoslangan uzoq muddatli donorlik munosabatlarini rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqiladi.	3. Donor Engagement. Strategies will be developed to build long-term donor relationships through transparency, feedback, and shared sustainability goals.
9. Ta’lim va Hamjamiyat Bilan Hamkorlik	9. Education and Community Engagement
1. Xabardorlik Kampaniyalari. Talabalar va xodimlar orasida barqaror xayriya tamoyillarini targ‘ib qilish uchun seminarlar, treninglar va tadbirlar o‘tkaziladi.	1. Awareness Campaigns. Workshops, seminars, and events will be conducted to promote sustainable fundraising principles among students and staff.
2. Fikr Bildirish Mexanizmlari. Universitet hamjamiyatidan mas’uliyat va inklyuziyani kuchaytirish maqsadida so‘rovlar va ochiq muloqotlar orqali fikr-mulohazalar olinadi.	2. Feedback Mechanisms. Input from the university community will be encouraged through surveys and open forums to strengthen accountability and inclusiveness.
3. Oliy Ta’lim Muassasalari O‘rtasida Hamkorlik. CAU boshqa universitet va tashkilotlar bilan barqaror moliyalashtirish va xayriya siyosatlaridagi ilg‘or tajribalarni almashadi.	3. Inter-Institutional Collaboration. CAU will engage in partnerships with other universities and organizations to share best practices in sustainable funding and donation policies.